

**ZARDUSHTIYLIKNIING BUGUNGI MANZARASI: QADIMIY E'TIQODNING
ZAMONAVIY SHAKLLARI**

Ollamova Dinora Oybek qizi

Berdaq nomidagi QDU Magistratura bo'limi
O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixi kafedrası

Tarix yo'nalishi 2 - bosqich magistranti.

dinoraollomova0811@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18165261>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zardushtiylik dinining tarixiy ildizlari uning bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida saqlanib qolgan shakllari hamda zamonaviy jamiyatda ma'naviy ahamiyati tahlil qilinadi. Zardushtiylik qadriyatları shuningdek, Eron, Hindiston va Iroq Kurdistoni hududlaridagi zardushtiylar jamoalari faol yo'li, ularning an'analari va diniy merosi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijasida zardushtiylikning qadimiy e'tiqod sifatida bugungi insoniyat madaniyatida saqlanib kelayotgani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Eron, Parsilar, Yazd, Kerman, Amudaryo, diniy meros, qadriyat, gebrlar, Markaziy Osiyo, kundalik turmush.

**TODAY'S LANDSCAPE OF ZOROASTISM: MODERN FORMS OF AN ANCIENT
FAITH**

Abstract. This article analyzes the historical roots of the Zoroastrian religion, its forms preserved in some regions of the world today, and its spiritual significance in modern society.

Information is provided about the values of Zoroastrianism, as well as the active path of Zoroastrian communities in the regions of Iran, India and Iraqi Kurdistan, their traditions and religious heritage. As a result of the study, it was noted that Zoroastrianism, as an ancient faith, has been preserved in the culture of today's humanity.

Keywords: Iran, Parsis, Yazd, Kerman, Amu Darya, religious heritage, values, Gebrs, Central Asia, daily life

Kirish

Zardushtiylik - insoniyat tarixidagi eng qadimiy monofeistik dinlardan biri bo'lib, uning asosiy g'oyasi bilamizki, ezgulik va yovuzlik o'rtasida kurash, insonlarni hamisha yer yuzida hamisha ezgu amallar qilishga chorlash bo'lgan.

Zardushtiylikning markazlaridan biri Eron bo'lib, bugungi kunda bu yerda 25 - 30 ming atrofida zardushtiylar yashaydi. Ularning asosiy qismlari Yazd va Kerman shaharlarida to'plangan.

Eron konstitutsiyasi zardushtiylarni diniy ozchilik sifatida tan olgan va parlamentda ular ucun alohida o'rin ajratgan.

Dinning yana bir yirik jamoalaridan biri Hindistonda joylashgan bo'lib ular "parsilar" nomi bilan tanilgan. VII -VIII asrlarda arablar tomonida Eron bosib olingach ko'plab zardushtiylar Hindistonga ko'chib o'tgan va o'z e'tiqodini saqlab qolgan. Bugungi kunda Hindistonda 50-60 mingga yaqin parsi yashaydi. Ular Mumbay va Gujarot viloyatlarida istiqomat qilib Ahuramazda e'tiqod qilishadi. Avestoni muqaddas kitob sifatida o'qishadi.

Ularning ibodat joyi "atash behrom" deb ataladi. Mayitlarni yerga ham ko'mmay, yoqmay, sukut minoralari deb ataluvchi joylarda qushlarga topshiradilar- bu zardushtiylikdagi tabiatni iflos qilmaslik g'oyasiga asoslangan.

Gebrlar va parsilar - zardushtiylikka e'tiqod qilishni saqlab qolgan etnokonfessional guruhlar bo'lib, ularning yagona maqsadi an'ana va e'tiqodni saqlash hisoblanadi.

Asosiy tahlil, bugungi kun

So'nggi yillarda Iroqning Kurdiston mintaqasida ham zardushtiylik qayta tiklanmoqda.

Bu hududda zardushtiylikni mahalliy xalq orasida milliy madaniy qadriyat sifatida qayta o'rganish harakatlari kuchaygan. Shuningdek, AQSH, Kanada Buyuk Britaniya va Avstraliyada ham zardushtiy diasporalari faoliyat yuritmoqda.

Bu din ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ham ilgari surgan qadimiy e'tiqodlardan biridir. Ayniqsa parsilar orasida ayollarning ta'lim va ijtimoiy hayotdagi o'rni yuqori baholanadi.

Zardushtiylarning ko'plari zamonaviy tibbiyot va fan, madaniyat sohalarida faoliyat yuritib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shib kelmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida ham oddiy kundalik rutinlari orasida ham zardushtiylikning belgilari transformatsiyaga uchragan shaklda qo'llaniladi. Islom dini hududda keng yoyilishi bilan zardushtiylik dini o'z ahamiyatini yo'qota boshlagan shunga qaramay ba'zi e'tiqodlari uchrab turadi. Masalan, olov yoki suvda harom narsaga tegib qolgan idishlarni poklamoq, uyga, odamlarga isiriq tutatib shifo so'rash, yangi hodisalar uchun olovli qog'oz yoqmoq (mashina, yangi kelin, yangi chaqaloq, uy uchun), ariqdagi suvga tupurmaslik iflos narsa tashlamaslik va h.k.z. Din islom dini davrida ko'p marotaba tazyiqlarga uchragan bo'lsada, ular o'z e'tiqodini yashirin yoki cheklangan shaklda davom ettirishgan.

Bugungi kunda ko'plab insonlar zardushtiylikni tarixiy meros sifatida o'rganmoqda. Bu esa kishilik madaniyatida qadimiy e'tiqodlarning unutilmay ularning zamonaviy ruhda yashab kelayotganini ko'rsatadi.

Tarixchilar va yozuvchilar talqinida zardushtiylik

XX asr boshlarida V.V. Bartold, A.L. Pogodin, E.S. Vulfson, S.F. Oldenburg, M.S. Andeervlar Zardusht va Zardushtiylik dini marosimlarini o'rganishga doir rus tilida e'tiborga sazovor ishlar chop etgan.¹ Jumladan akademik V.V. Bartold Eronning madaniy iqtisodiy tarixini tasvirlab forslar madaniyatining jahon tarixida tutgan o'rnini tadqiq etish barobarida, boshqa bir o'rinda "Etnografik jihatdan tadqiqotlar olib borish lozim bo'lganda eng avvalo Xorazm bu borada katta ahamiyatga ega ekani, ushbu hududda maishiy turmushning qadimiy an'analari hozirgacha kuchli saqlanib qolgan deya ta'kidlar edi.

A.L. Pogodin o'zining 1903- yilda chop etilgan monografik asarida mazkur qadimiy dini yuzaga keltiegan manbalarni o'rganar ekan ushbu dinning kelib chiqishini o'sha davrdagi an'anaga binoan bevosita Eron bilan bog'lar edi.² M.B. Meytarchiyaning tadqiqotlarida hozirgi kunda Eron zardushtiylari orasida rasm bo'lgan o'lim arafasi, dafn va dafn marosimlaridan keyingi odatlar, ularning davriy va lokal ko'rinishlari haqida so'z yuritgan bo'lib, unda muallif O'rta Osiyo xalqlari turmushida olov kulti bilan bog'liq marosimlarga ham qisman to'xtalgan.³

¹ Бартольд В.В. Историко географический обзор - СПб 1903. с.

² Погодин А.Л. Религия Заратустры - СПб 1903 с.

³ Мейтarchиян М.Б Побрегалный обряд иранских зороастрицев нового времени; 1990 с. 98

Xulosa

Binobarin XXI asrda urf-odat an'ana va marosimlar muhim o'zgarishlarga yuz tutib, ularning transformatsiyasi ayni paytda ijtimoiy-ma'naviy hayotda ushbu urf-odat va marosimlarning tutgan o'rni hamda ahamiyati masalasining o'rganilishi, ularning mohiyati va kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillar, ulardan ko'zlangan maqsad, mazkur urf-odat va marosimlarning bugungi kunga qadar yetib kelishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy hamda e'tiqodiy omillarga doir masalarning tadqiq qilinishi hamisha dolzarblik kasb etgan. Shuningdek bunday tadqiqotlar kelgusida ham davom etishi va masalaning yangi qirralari tadqiqotchilar tomonidan kashf etib borilishi mantiqiy jarayon ekanligi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рапопорт Ю.А. "Из истории религии древнего Хорезма" - М Наука 1971 С- 29
2. Махмудова Г.Т. Философская сущность Авесты. - Т 2010
3. Базарбаев Ж. Хожаниязов Г. Базарбаев Р. "Эйjemги Окс дэрьясиниң төмениндеги Зардуштийлик излери" Нөкис. 2007
4. Sulaymonov R. Hasanov M. Raimqulov A. Омельченко А. Эпоха заратуштры и начало урбанизации Древнего Нахшаба - O'zbekiston tarixi 2001.
5. Sulaymonov R.H. Ishohov. M.M Zaratushtaning vatani va yashagan davriga oid mulohazalar. O'zbekiston tarixi - 1999.
6. Qurboniva D.Sh Xorazm vohasining qadimgi va ilk o'rta asrlar ma'naviy madaniyati(arxeologik, yozma va etnografik manbalar asosida) T. 2015.
7. Avesta Yasht kitobi // M. Ishahov tarjimasi. 2001
8. Лелеков А. А. Авеста в современной науке. М. 1992

Internet sahifalari:

9. Wikipedia.or.ru
10. Arxiv.uz
11. Ziyouz.uz
12. Oyina.uz
13. Qomus.info